Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION RISKLARNI SUG‘URTALASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Tinglovchi**: Raximov Abduvosid Vohidjon o‘g‘li**
Ilmiy rahbar: **G. Xalikulova**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ANNOTATSIYA

Innovatsion faoliyat iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lsa-da, texnologik, bozor, moliyaviy, huquqiy va institutsional risklar bilan kechadi. Tadqiqotda O‘zbekistonda innovatsion risklarni sug‘urtalash amaliyotining joriy holati baholanib, xorijiy tajriba asosida uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Institutsional-me’yoriy va qiyosiy tahlil, NPV va IRR asosidagi moliyaviy modellashtirish hamda sezuvchanlik tahlili qo‘llanildi. Natijalar sug‘urta bozori va startap ekotizimi jadal o‘sayotganiga qaramay, innovatsion risklarga ixtisoslashgan sug‘urta mahsulotlari va aktuar statistika bazasi yetarli shakllanmaganini ko‘rsatdi. Shartli modelda sug‘urtaning samaradorlik chegarasi davlat subsidiyasining taxminan 55–60 foiz darajasiga to‘g‘ri keldi. Mukofotni maqsadli subsidiyalash, bosqichli sug‘urta mahsulotlari, texnoparklarda pilot loyihalar, intellektual mulk sug‘urtasi va qayta sug‘urtaga tayangan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari taklif etildi.

Kalit so‘zlar: innovatsion risk, sug‘urta, startap, venchur kapital, texnologik risk, intellektual mulk, NPV, IRR, davlat subsidiyasi, qayta sug‘urta, davlat-xususiy sheriklik.

АННОТАЦИЯ

Инновационная деятельность — важный фактор экономического роста, однако она сопряжена с технологическими, рыночными, финансовыми, правовыми и институциональными рисками. В исследовании оценено текущее состояние страхования инновационных рисков в Узбекистане и с учётом зарубежного опыта разработаны предложения по его совершенствованию. Применены институционально-нормативный и сравнительный анализ, финансовое моделирование (NPV, IRR) и анализ чувствительности. Показано, что при быстром росте страхового рынка и стартап-экосистемы специализированные страховые продукты и актуарная статистика по инновационным рискам остаются недостаточно развитыми. В условной модели порог эффективности страхования достигается при государственной субсидии около 55–60%. Предложены целевое субсидирование премии, поэтапное страхование, пилотные программы в технопарках, страхование интеллектуальной собственности и государственно-частное партнёрство с опорой на перестрахование.

Ключевые слова: инновационный риск, страхование, стартап, венчурный капитал, технологический риск, интеллектуальная собственность, NPV, IRR, государственная субсидия, перестрахование, государственно-частное партнёрство.

ABSTRACT

Innovation drives economic growth but involves technological, market, financial, legal and institutional risks. This study assesses the current state of innovation risk insurance in Uzbekistan and, drawing on international experience,

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







develops proposals for its improvement. Institutional and comparative analysis, financial modelling (NPV, IRR) and sensitivity analysis are applied. The findings show that, despite the rapid growth of the insurance market and the start-up ecosystem, specialised insurance products and actuarial data for innovation risks remain underdeveloped. In the conditional model, insurance breaks even at a state subsidy of about 55–60 percent. Targeted premium subsidies, stage-based insurance products, pilot programmes in technology parks, intellectual property insurance and reinsurance-backed public-private partnership are proposed.

Keywords: innovation risk, insurance, start-up, venture capital, technological risk, intellectual property, NPV, IRR, state subsidy, reinsurance, public-private partnership.

KIRISH

Innovatsion rivojlanish yangi mahsulot, texnologiya va biznes modellari orqali iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi manbalarini shakllantiradi. Biroq innovatsion loyihalar an’anaviy investitsiya loyihalariga nisbatan ancha yuqori noaniqlik bilan tavsiflanadi: texnologiyaning kutilgan natijani bermasligi, talab shakllanmasligi, moliyalashtirishdagi uzilishlar, intellektual mulk bo‘yicha nizolar va tartibga solishdagi o‘zgarishlar loyiha qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Global miqyosda geosiyosiy parchalanish sug‘urta sig‘imini cheklab, himoya tanqisligini (protection gap) kengaytirmoqda [11], sun’iy intellekt kabi texnologiyalar esa yangi sug‘urtalanadigan aktivlar va javobgarlik risklarini yuzaga keltirmoqda [12].

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun [1] va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi [3] bilan mustahkamlangan. Global innovatsion indeks – 2025 da mamlakat 139 ta davlat orasida 79-o‘rinni egallagan, biroq innovatsion kirimlar bo‘yicha 69-, natijalar bo‘yicha esa 92-o‘rinda turibdi [13]. Bu farq g‘oyalarni tijoratlashtirish bosqichidagi to‘siqlar, jumladan risklarni taqsimlash mexanizmlarining yetishmasligi bilan ham izohlanishi mumkin. Shu sababli innovatsion risklarni sug‘urtalashni klassik sug‘urta mahsuloti sifatida emas, balki davlat, sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyalari hamda innovatsion faoliyat subyektlari o‘rtasida riskni taqsimlovchi kompleks mexanizm sifatida ko‘rib chiqish zarur. Tadqiqotning maqsadi ushbu amaliyotning joriy holatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash, xorijiy tajribani qiyosiy baholash va milliy sharoitga mos amaliy mexanizmlarni taklif etishdan iborat.

INNOVATSION RISKLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA SUG‘URTALANUVCHANLIGI

F. Nayt risk (ehtimolligi statistik baholanadigan hodisa) va noaniqlik (ehtimolligini baholab bo‘lmaydigan hodisa) o‘rtasidagi farqni asoslagan [5]; innovatsion loyihalar ko‘pincha ikkinchi toifaga yaqin turadi. K. Errou innovatsiyalarga ijtimoiy maqbul darajadan kam investitsiya kiritilishini natijalar noaniqligi va riskni taqsimlash bozorlarining nomukammalligi bilan izohlagan [6]. B. Berlinerning sug‘urtalanuvchanlik mezonlari (zararning tasodifiyligi, ehtimollik va zarar hajmini baholash mumkinligi, maksimal zararning cheklanganligi, axborot asimmetriyasining me’yoridaligi, mukofotning maqbulligi) risklarning qaysi qismi bozor orqali qoplanishini aniqlash imkonini beradi [7]. Ma’lumotlar yetishmasligi va zararlarning o‘zaro bog‘liqligi yangi risklar sug‘urtasi bozori shakllanishiga to‘sqinlik qilishi kiber-risklar misolida tasdiqlangan [8]. Bozor qoplay olmaydigan risklar qismi

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







esa davlat kafolatlari va subsidiyalari orqali taqsimlanishi lozim. Shu asosda innovatsion risklar besh guruhga ajratildi va har biri uchun mos instrument aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. **Innovatsion risklar tasnifi va ularga mos risk-transfer instrumentlari**

Risk turi	Mazmuni	Mos sug‘urta yoki kafolat instrumenti
Texnologik risk	Yangi texnologiya yoki mahsulotning kutilgan texnik natijani bermasligi	Yangi uskuna sifati va javobgarlik sug‘urtasi; ITTKI natijasizligini qisman qoplash
Bozor riski	Mahsulotga talab shakllanmasligi, raqobatning kuchayishi	Asosan sug‘urtalanmaydi: venchur kapital, davlat xaridlari; debitorlik qarzi sug‘urtasi
Moliyaviy risk	Moliyalashtirishdagi uzilish, xarajatlar oshishi, likvidlik tanqisligi	Kredit kafolatlari, kreditni qaytarmaslik riskini sug‘urtalash
Huquqiy risk	Patent, litsenziya va boshqa IM huquqlari bo‘yicha nizolar	Intellektual mulk sug‘urtasi (himoya va da’vo xarajatlari)
Institutsional risk	Tartibga solish, infratuzilma va institutsional muhitdagi o‘zgarishlar	Siyosiy va regulyativ risklar sug‘urtasi, davlat kafolatlari

Manba: [7; 8] asosida muallif ishlanmasi. IM – intellektual mulk; ITTKI – ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari.

Texnologik va huquqiy risklarni ixtisoslashgan mahsulotlar orqali sug‘urtalash mumkin, bozor riski esa asosan venchur kapital orqali boshqariladi. Shu bois yagona universal polis o‘rniga loyiha bosqichi va risk intensivligiga mos differensial yondashuv samaraliroqdir.

Tadqiqot aralash usullar yondashuvi asosida uch bosqichda olib borildi: me’yoriy-huquqiy baza [1–4], Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) va IT Park ma’lumotlari [14; 16] tahlili; AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy modellarini qiyoslash; sug‘urtalash samaradorligini korxona nuqtai nazaridan NPV va IRR asosida modellashtirish hamda sezuvchanlik tahlili. Korxonaning sof sug‘urta xarajati va loyihaning sof keltirilgan qiymati quyidagicha aniqlandi:

$$P_k = k \cdot S \cdot (1 - s)$$

$$NPV(s) = \sum_{t=0}^{T} \frac{CF_t(s)}{(1+r)^t}$$

bu yerda P_k – korxonaning sof sug‘urta xarajati; k – sug‘urta tarifi; S – sug‘urta summasi; s – mukofotning davlat tomonidan qoplanadigan ulushi; $CF_t(s)$ – subsidiya va sug‘urta qoplamasini hisobga olgan holda t-davrdagi kutilayotgan sof pul oqimi; r

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







– diskont stavkasi; T – loyiha davri. NPV(s*) = 0 shartini qanoatlantiruvchi s* qiymati subsidiyaning chegaraviy qiymati (switching value) sifatida qabul qilindi.

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION RISKLARNI SUG‘URTALASHNING JORIY HOLATI

2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun [2] elektron polislar va yagona raqamli tizimga huquqiy asos yaratdi, bozor esa jadal o‘smoqda: ILMA ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda sug‘urta mukofotlari 37,8 foizga oshib, 13,46 trln so‘mga yetdi [14]. Shunga qaramay, sug‘urta penetratsiyasi YaIMning taxminan 0,8 foizini tashkil etadi [15], OECD mamlakatlarida esa bu ko‘rsatkich 2024-yilda o‘rtacha 6,2 foiz bo‘lgan [10]. Startaplarga investitsiyalar ham keskin oshgan, biroq ularning asosiy qismi xorijiy kapital hisobiga va dastlabki bosqichlarda amalga oshirilmoqda [16] (2-jadval).

2-jadval. **O‘zbekiston sug‘urta bozori va innovatsion ekotizimining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil)**

Ko‘rsatkich	Qiymat
Jami sug‘urta mukofotlari	13,46 trln so‘m (+37,8%)
Sug‘urta to‘lovlari	2,98 trln so‘m (+35,4%)
Sug‘urta penetratsiyasi (mukofotlar / YaIM)	≈0,8% (OECD o‘rtachasi – 6,2%)
Startaplarga investitsiyalar	329 mln AQSH dollari (≈89% – xorijiy kapital)
Dastlabki (pre-seed, seed) bosqich bitimlari ulushi	92% (jami 140 ta bitim)
Global innovatsion indeksdagi o‘rni	79 (kirimlar – 69, natijalar – 92)

Manba: [10; 13–16] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlil to‘rt asosiy cheklovni ko‘rsatdi: innovatsion loyihalarga ixtisoslashgan sug‘urta mahsulotlarining yetishmasligi; tarif va zarar ehtimolini baholash uchun aktuar statistika bazasining yetarli emasligi; startaplarning moliyaviy imkoniyati cheklangani sababli to‘lovga qodir talabning pastligi; yirik va noyob risklar uchun qayta sug‘urta sig‘imining cheklanganligi. Bu borada PQ-191-son qaror bilan tashkil etilgan “O‘zbekiston qayta sug‘urta kompaniyasi”ga investitsiya loyihalari risklarini kompleks qayta sug‘urtalash vazifasining yuklatilishi [4] davlat-xususiy risk taqsimoti uchun yangi institutsional imkoniyat yaratadi. Demak, sug‘urta bozori va startap ekotizimi jadal o‘sayotgan bo‘lsa-da, ularni o‘zaro bog‘lovchi risk-transfer mexanizmi hali shakllanmagan.

XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN AMALIY XULOSALAR

Qiyosiy tahlil muvaffaqiyatli modellarda davlatning maqsadli ishtiroki mavjudligini ko‘rsatdi (3-jadval). Xitoyda 2015-yildan buyon noyob yirik texnologik uskunalar sug‘urtasida markaziy byudjet tarifi 3 foizdan oshmagan mukofotning 80 foizini uch yilgacha qoplaydi [17]. AQSHda bosqichli SBIR/STTR dasturlari 2031-yilgacha uzaytirildi [18], Germaniyada esa eksport kreditlari bo‘yicha davlat kafolatlarini federal hukumat nomidan xususiy sug‘urtalovchi boshqaradi [19]. OECD tadqiqotiga

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







ko‘ra, davlat venchur kapitali xususiy investorlar bilan birgalikda sarmoya kiritganda kompaniyalar natijalari xususiy moliyalanganlarnikiga yaqinlashadi [9].

3-jadval. **Innovatsion risklarni taqsimlashning xorijiy modellari**

Mamlakat	Asosiy mexanizm	O‘zbekiston uchun ahamiyati
AQSH	SBIR/STTR bosqichli grantlari, xususiy IM sug‘urtasi	Bosqichli qo‘llab-quvvatlash, IM risklarini qoplash
Germaniya	Davlat kafolati va xususiy sug‘urtalovchi ma’muriyatchiligi	Davlat-xususiy risk taqsimoti
Yaponiya	NEDO orqali bosqichli moliyalashtirish	Loyiha bosqichiga mos qamrov
Janubiy Koreya	KIBO texnologik kredit kafolatlari	Texnologiyani baholashga asoslangan kafolat
Xitoy	Mukofotning 80% subsidiyasi (tarif ≤3%, 3 yilgacha)	Texnoparklarda subsidiyalangan pilot

Manba: [9; 17–21] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Demak, O‘zbekiston uchun davlatning cheklangan va maqsadli ishtirokini nazarda tutuvchi aralash model istiqbolli: davlat bozor mustaqil qoplay olmaydigan risklarni subsidiya, kafolat yoki qayta sug‘urtalash orqali taqsimlashga ko‘maklashadi, xususiy sektor esa anderrayting, zararlarni tartibga solish va mahsulot ishlab chiqishni ta’minlaydi.

INNOVATSION SUG‘URTANING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Tarixiy ma’lumotlar yetishmasligi sababli shartli moliyaviy model qo‘llanildi: 1 mlrd so‘mlik innovatsion loyiha, 2,5 foizlik sug‘urta tarifi va davlat subsidiyasining 0, 40 va 80 foizlik ssenariylari. (1) formulaga ko‘ra korxonaning sug‘urta xarajati mos ravishda 25, 15 va 5 mln so‘mni tashkil etadi (4-jadval).

4-jadval. **Sug‘urtalash samaradorligining shartli ssenariylari**

Subsidiya	Korxona xarajati	Shartli NPV	Shartli IRR	Baholash
0%	25 mln so‘m	−18,5 mln so‘m	9%	Maqsadga muvofiq emas
40%	15 mln so‘m	−4,2 mln so‘m	14%	Chegaraviy holat
80%	5 mln so‘m	+11,8 mln so‘m	22%	Iqtisodiy jihatdan ma’qul

Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli ma’lumotlar asosida).

Sezuvchanlik tahlili NPV eng ko‘p loyiha muvaffaqiyati ehtimoli va subsidiya darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi: NPV nolga tenglashadigan chegaraviy qiymat (switching value) taxminan 55–60 foiz subsidiya oralig‘ida shakllandi. Demak,

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







innovatsion sug‘urtani dastlabki bosqichda davlatning maqsadli qo‘llab-quvvatlashi bilan joriy etish zarur. Model parametrlarining Xitoy amaliyotiga (tarif chegarasi 3 foiz, subsidiya 80 foiz) yaqinligi natijalarning xalqaro tajribaga mosligini ko‘rsatadi, byudjet yukini cheklash uchun esa subsidiyani loyiha bosqichiga qarab tabaqalashtirish lozim.

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION RISKLARNI SUG‘URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Tahlil natijasida quyidagi besh ustuvor yo‘nalish taklif etiladi.

1. Davlat subsidiya mexanizmini institutsionallashtirish. Mukofotni qisman qoplash tartibi, subsidiya mezonlari (texnopark rezidentligi, mustaqil ekspertiza xulosasi, tarifning yuqori chegarasi) va natijadorlik ko‘rsatkichlarini normativ hujjat bilan belgilash innovatsion korxonalarning sug‘urta xarajatini kamaytirib, barqaror talabni shakllantiradi.

2. Bosqichli sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish. Tadqiqot-ishlanma, prototip va bozorga chiqish bosqichlari uchun alohida qamrov va differensial subsidiya darajasini belgilash maqsadga muvofiq (5-jadval).

5-jadval. **Bosqichli subsidiyalashning tavsiyaviy modeli**

Loyiha bosqichi	Ustuvor risklar	Sug‘urta qamrovi	Subsidiya
Tadqiqot-ishlanma	Texnologik, huquqiy	ITTKI natijasizligi, IM huquqlarini himoya qilish	70–80%
Prototip va bozor sinovi	Texnologik, moliyaviy	Uskuna sifati va javobgarlik, moliyalashtirish uzilishi	50–60%
Bozorga chiqish	Bozor, moliyaviy	Kredit va tijorat risklari, mahsulot javobgarligi	30–40%

Manba: muallif ishlanmasi. Ko‘rsatkichlar universal norma emas, balki xorijiy tajribaga tayangan shartli tavsiyaviy modeldir.

3. IT Park va boshqa texnoparklarda pilot dasturlarni joriy etish. 2–3 yillik pilot davrida subsidiyalangan mahsulotlarni sinash statistik ma’lumotlarni to‘plash, tariflarni aniqlashtirish va mahsulotlarni kengaytirishdan oldin samaradorlikni baholash imkonini beradi; natijalar sug‘urtalovchilar uchun ochiq yagona zararlar bazasida jamlanishi lozim.

4. Intellektual mulk sug‘urtasini alohida yo‘nalish sifatida rivojlantirish. Patent va boshqa IM obyektlari bo‘yicha himoya va da’vo xarajatlarini qoplovchi mahsulotlar nomoddiy aktivlarni himoya qiladi va ulardan kredit ta’minoti sifatida foydalanish imkoniyatini kengaytirishi mumkin.

5. Davlat-xususiy sheriklik asosida qayta sug‘urta mexanizmini shakllantirish. “O‘zbekiston qayta sug‘urta kompaniyasi” ishtirokida innovatsion risklar bo‘yicha qayta sug‘urta puli (pool) hamda zararlilik belgilangan chegaradan oshganda ishga tushadigan davlat kafolati (stop-loss) joriy etilsa, davlat faqat xususiy bozor qoplay olmaydigan risklarni qisman o‘z zimmasiga oladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari innovatsion risklarni sug‘urtalashni rivojlantirish O‘zbekiston innovatsion ekotizimining moliyaviy barqarorligi uchun muhimligini

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







ko‘rsatadi. Sug‘urta bozori va startap investitsiyalari jadal o‘sayotgan bo‘lsa-da, sug‘urta penetratsiyasi past, ixtisoslashgan mahsulotlar va aktuar statistika yetarli emas, yuqori noaniqlik esa xususiy sug‘urtalovchilarning yangi mahsulotlarni mustaqil joriy etishini murakkablashtiradi.

Shu sababli milliy model risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlash, mukofotni maqsadli va bosqichli subsidiyalash, intellektual mulk risklarini qoplash, texnoparklarda pilot sinovlar va milliy qayta sug‘urta salohiyatiga asoslanishi lozim. Bu yondashuv investorlarning risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi, sug‘urta mahsulotlarini diversifikatsiya qiladi va innovatsion loyihalar barqarorligini oshiradi. Modelni pilot davrida to‘plangan real ma’lumotlar asosida aniqlashtirish keyingi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 24-iyul, O‘RQ- 630- son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 23-noyabr, O‘RQ- 730- son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF- 165- son Farmoni “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ- 191- son qarori “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. – Boston: Houghton Mifflin, 1921.
6. Arrow K.J. Economic Welfare and the Allocation of Resources for Invention // The Rate and Direction of Inventive Activity. – Princeton: Princeton University Press, 1962. – P. 609–626.
7. Berliner B. Limits of Insurability of Risks. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1982.
8. Biener C., Eling M., Wirfs J.H. Insurability of Cyber Risk: An Empirical Analysis // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2015. – Vol. 40, No. 1. – P. 131–158.
9. Berger M., Dechezleprêtre A., Fadic M. What is the Role of Government Venture Capital for Innovation-driven Entrepreneurship? // OECD Science, Technology and Industry Working Papers, No. 2024/10. – Paris, 2024.
10. OECD. Global Insurance Market Trends 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025.
11. Swiss Re Institute. World insurance in 2025: a riskier, more fragmented world order // sigma, No. 2/2025. – Zurich, 2025.
12. Swiss Re Institute. AI adoption is reshaping the risk landscape // sigma insights, No. 01/2026. – Zurich, 2026.
13. WIPO. Global Innovation Index 2025: Uzbekistan ranking. – Geneva: WIPO, 2025.
14. Uzbekistan’s Insurance Market Grows 37.8% in 2025 (ILMA ma’lumotlari) // UzDaily.uz. – 13.03.2026. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-378-in-2025/
15. Uzbekistan’s insurance market grows more than 3.5 times in five years // Trend. – 25.06.2026. – URL: https://www.trend.az/business/finance/4201475.html

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







16. Investments in Uzbek Startups Quintupled in 2025, Reaching US$329 Million (IT Park ma'lumotlari) // UzDaily.uz. – 03.03.2026.
17. Ministry of Finance of the PRC, MIIT, CIRC. Notice on the Pilot Insurance Compensation Mechanism for the First (Set of) Major Technical Equipment (Cai Jian [2015] No. 19). – Beijing, 2015.
18. U.S. Small Business Administration. SBIR/STTR Programs; Small Business Innovation and Economic Security Act of 2026 (S. 3971). – URL: https://www.sbir.gov
19. Bundesministerium für Wirtschaft und Energie. Export Credit Guarantees of the Federal Republic of Germany. – URL: https://www.exportkreditgarantien.de
20. NEDO. Innovation and deep-tech startup support programmes. – URL: https://www.nedo.go.jp
21. Korea Technology Finance Corporation (KIBO). Technology guarantee programmes. – URL: https://www.kibo.or.kr